



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022  
ДЕКАБР  
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
21-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-21**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-21**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 53 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хўмидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

<b>1. Mamasodiqova Muqaddas, Akramova Dilafro‘z Akrom qizi</b>	
ZAMONAVIY DARSGA QO‘YILGAN TALABLAR .....	7
<b>2. Mansurova Nargiza Nurullayevna</b>	
KIMYO DARSLARIDA AUKSION METODIDAN FOYDALANISH.....	8
<b>3. Kurbanova Shoira Kamiljanovna</b>	
INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA KIMYO FANINI O’QITISH.....	10
<b>4. Turdiyeva Barchinoy Homidjon qizi</b>	
INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA KIMYO FANINI O’QITISH.....	12
<b>5. Jumayeva Dilrabo Mirzoqobilovna</b>	
KALSINATSIYA QILINGAN SODA MAXSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH .....	14
<b>6. Ibragimova Farida Ibragimovna</b>	
SINFDAN TASHQARI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL QILISHNING UMUMIY MASALALARI .....	15
<b>7. Kuchkarova Xurshida A’zamjonovna</b>	
HOZIRGI KUNDA KIMYO DARSLARINI ZAMONAVIY TASHKIL ETISH .....	17
<b>8. Mirsiddiqova Sojida Qobilovna</b>	
MAVZULARNI O’QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI ....	19
<b>9. Mirzaliyeva Dilorom</b>	
KIMYODA TASVIRIY METODLARNING ROLI .....	21
<b>10. Nafosat Murodova</b>	
KIMYO FANINI O’QITISHDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISH .....	23
<b>11. Ollaberganova Dinora Sultanova Kamola</b>	
KIMYO TA’LIMIDA FAOL RIVOJLANTIRUVCHI VOSITALAR .....	25
<b>12. Paluaniyazova Feruza Bazarbaevna, Xalmuratova Gulbahar Polatovna, Berdisheva Gulayda Abishovna .....</b>	27
KIMYO DARSLARIDA “PROBIRKA” METODINI QO‘LLASH USULLARI.....	27
<b>13. Rajabbayeva Lobar Shuxrat qizi</b>	
KIMYO DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIM .....	29
<b>14. Rasulova Nilufar Ubaydullayevna</b>	
KIMYO DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH .....	31
<b>15. Seytimbetova Asiya Musayevna</b>	
KIMYO FANIDAN QIZIQ KASHFIYOTLAR.....	33
<b>16. Shirinova Zaynura Hasanovna</b>	
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TURLARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYA .....	35
<b>17. Toshova Gulhayo Eshonqulovna, Rajabova Baxtigul Baxodirovna</b>	
KIMYO VA BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL O’QITISH USULLARIDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI, AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.....	37
<b>18. Xasanova Shaxlo Xosilovna, Sulaymonova Nafosat Rayimovna</b>	
KIMYOVİY O’YINLAR – INTERFAOL O’QITISH USULI SIFATIDA.....	39
<b>19. Xayitbayeva Gulsanam Majitovna</b>	
KIMYO FANINING RIVOJLANISH TARIXI.....	41
<b>20. Маликова Нигина Рифкатовна</b>	
УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАР- НИНГ КИМЁ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДАГИ ЎРНИ .....	43
<b>21. Ниёзова Дилдора Ҳамидовна, Рўзмаматова Зебо Раббимкуловна</b>	
УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ОРГАНИК КИМЁНИ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ .....	45
<b>22. Muxtarova Husnora Rustamovna, Jumayeva Lobar Xusenboyevna</b>	
KIMYO FANINI O’QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH .....	47
<b>23. Shermatova Uktamxon O’razaliyevna</b>	
KIMYO FANIDAN O’QUVCHILARNING XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O’QITISH USULLARI .....	50



## КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

### ZAMONAVIY DARSGA QO‘YILGAN TALABLAR

**Mamasodiqova Muqaddas,**

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani

48-umumta’lim maktab

**Akramova Dilafro‘z Akrom qizi,**

Zarafshon shahar 2-umumta’lim

maktab kimyo fani o‘qituvchilari

Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta’lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatimizning demokratlashuvi, axborot miqyosining oshib borishi kabi omillar bolaning shaxsiy xususiyatlariga, jumladan idrok eta olish, tasavvur va tafakkurlash, aqliy qobiliyatining rivojlanishiga olib keldi. Bolaning olamini bilishga bo‘lgan ehtiyoji avvalgi yillarga nisbatan keskin oshganligi hech kimga sir emas.

Ta’lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib, *komil insonni* tarbiyalab voyaga yetkazish qo‘yildi. Bu ezgu maqsadni bajarish eski an’anaga kirib qolgan ta’lim-tarbiyaviy usullar vositasida emas, balki zamonaviy yangi dars hamda usullar vositasida amalga oshirilishi shart. Eng avvalo, "dars tipi" degan ibora ta’lim amaliyoti hamda umumta’lim fanlari o‘qitish metodikasidan mustahkam o‘rin olgan. Darsmurakkab pedagogik jarayondir. Dars tiplari ta’lim metodlariga, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishga, ta’lim mazmuniga qarab guruhlarga ajratiladi. Eng keng tarqalgan va pedagogik faoliyatda mustahkam an’anaga aylangan quyidagi dars tiplari mavjud:

1. Aralash dars;
2. Kirish darsi;
3. Yangi bilimlarni o‘rganish darsi;
4. Ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish darsi;
5. Takrorlash darsi.

Bu an’anaviy dars tiplarining kamchiligi quyidagilar hisoblanadi:

O‘qituvchi darsni tashkil etadi, o‘quvchi unda passiv ishtirok etadi.

O‘quvchidagi ilmga bo‘lgan intilish, mustaqil fikrini bayon etabilishi chegaralangan.

O‘qituvchi hamda o‘quvchilarning faoliyati chegaralanib muayyan qolipga solingan.

"5"-balli baho tizimi o‘quvchi egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining sifatini yaqqol ko‘rsata olmaydi.

Darslarda o‘qituvchi va ayniqsa o‘quvchi faoliyatidagi mavjud ijodkorlik so‘nadi.

Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ko‘rinish va mazmuni jihatdan eski tipdagi darslardan tubdan farq qiluvchi 50 ga yaqin nomdagi yangi "noan'anaviy dars"lar amaliyot keng qo‘llanilmoqda.

Noan'anaviy dars deganda, faqat uning nomiga qarab baholash yoki ularni alohida dars tipiga kiritish yaramaydi. Eng asosiysi, bunday darslar talabaning ilm olish imkoniyatlarini kengayishiga, ularning mustaqil fikrlashiga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishiga, darslik, qo‘srimcha ta’lim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishiga, uning bilimi va iste’dodiga qarab faoliyatini obyektiv baholanishiga asoslangan bo‘lishi kerak.

Zamonaviy darsga qo‘yiladigan talab asosan jamiyatimizning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Jamiyatning rivojni hayotning barcha jahbalariga shu jumladan, ta’lim mazmuniga, dars tuzilishiga, qolaversa, insonning kundalik faoliyatiga albatta, o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiydir.



## KIMYO DARSLARIDA AUKSION METODIDAN FOYDALANISH

Mansurova Nargiza Nurullayevna

Navoiy viloyati Navbahor tumani

14 – IDUMI kimyo fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo darslarida auksion metodidan foydalanib o’qitish metodlari, ta’lim vositalari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar;** ta’lim vositalari, o’rgatish vositalari, o’rganish vositalari, auksion metodi.

Ta’lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko‘ra yondashish mumkin: faoliyat sub’yektiga ko‘ra, faoliyat ob’yektiga ko‘ra, o‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra, o‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra. Faoliyat sub’yekti bo‘yicha ta’lim vositalari o’rgatish va o’rganishga bo‘linadi. O’rgatish vositalari – namoyishli tajriba qurollari. Bunday qurollar o‘qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. O’rganish vositalari – laboratoriya praktikum qurollari. Bunday vositalar o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo‘llaniladi. Didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo‘linadi. Birinchisiga ko‘ra, narsalar o‘qituvchi tomonidan ta’limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo‘llanilsa, ikkinchisi - bu o‘quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlari. Bundan tashqari didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyat turiga ko‘ra sport qurollari, kompyuterlarga ham bo‘linadi. Faoliyat obyektlari bo‘yicha ham ta’lim vositalari ikkiga bo‘linadi. Bular material ta’lim vositalari bu o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o‘quv - texnik vositalar, mebel, o‘quv-laboratoriya qurilmalari, ko‘rgazmali vositalar bo‘lishi mumkin. Ideal ta’lim vositalari - bular pedagog va o‘quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo‘llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san’at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar - bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o‘qituvchi ularni o’rgatish uchun belgilangan shaklda ko‘rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya - abstrakt simvollar tarzida ko‘rsatiladigan vosita(grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya - nutq bayoni tarzida ko‘rsatiladigan vosita(tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish). Material va ideal vosita bir-birini to‘ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg‘otish, amaliy harakatlarni amalgalash bilan bog‘liq bo‘lsa, ideal vositalar - mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog‘liq.

Kimyo darslarida auksion metosi o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Darsda kimyoga oid tushunchalarning o’rganish bilan birga boshqa fanlar bilan bog‘liqligini o’rganishadi. Masalan, biologiya, iqtisod, tarix, matematika fanlari bilan bog‘liqligini ko‘rib chiqishadi.

Metodning afzallikkari: integratsiyalanishi, barcha o‘quvchilar faol qatnashadi, mantiqiy fikrlash qobiliyati ortadi, hisob – kitob ishlari olib borishadi.

Bu metodning har bir mavzuda qo‘llasa bo‘ladi. Maqola davomida galogenlar mavzusida auksion metodining ko‘rib chiqamiz.

Galogenlarga guruhiга fтор, xlor, brom, yod, astat, tennesin kiradi. Sotuvchi yettinchi guruh hisoblanadi. Xaridorlar ikkinchi, uchinchi, to’rtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, davrlar va qatorlar bo‘ladi. Bir o‘quvchi boshlovchi, bir o‘quvchi sotuvchi, bir o‘quvchio sharxlovchi rolini bajaradi.

Birinchi sotiladigan mahsulotimiz fтор baholanish juda cheksiz, xususiyatlari elektrmanfyligi eng yuqori, metallmas, juda ziqna element sababi hech kimga elektron bermaydi, eng qonxo‘r element sababi juda zaharli gaz, xavodan yengil.

Sotaman, sotaman, sotaman, sotildi, Fтор 7 guruh 2 davr, 2 qatorga sotildi.

Ikkinci sotiladigan mahsulotimiz xlor. Baholanish narxi 35.5 dollar. Xususiyatlari rangi sariq. Dezinfeksiyalovchi xususiyatga ega. Sababi oilada ishxonalarda dezinfeksiyalovchi sifatida foydalilaniladi. Havodon 1.22 marta og’ir. Fтор va kislородга bo‘ysunadi. Qolgan barcha elementlarning bo‘ysundiradi.

Sotaman, sotaman, sotaman, sotildi. Xlor 7 – guruh, 3 – davr, 3 – qatorga sotildi.

Uchinchi sotiladigan mahsulotimiz brom. Baholanish narxi 80 dollar. Xususiyatlari, suyuq va gaz holatda 2 atomli molekudan iborat. Agar u organizmda miqdori kamaysa, asab kasalliklari, teri tanosil kasalliklari kelib chiqadi. paydo bo‘ladi.



Sotaman, sotaman, sotaman, sotildi. Brom 7 – guruh, 4 – davr, 5 – qatorga sotildi.

To’rtinchi sotiladigan mahsulotimiz yod. Xusiyatlari, og’ir klinik kasalliklar, endemik buqoq, jismoniy va ruhiy jihatdan nuqsonliklar kelib chiqadi. Lotincha iodum, yunoncha iodos – binafsha rangli ma’nosini bildiradi.

Sotaman, sotaman, sotaman, sotildi. Yod elementi 7 – guruh, 5 – davr, 7 – qatorga sotildi.

Bu metod orqali o’quvchilar juda ko’p ma’lumotlarga ega bo’lishadi. Darslikdan tashqari qo’shimcha ma’lumotlar bilan ishlashadi. Mavzu oldindan berilsa, o’quvchilar mustaqil ma’lumot izlashadi. Qo’shimcha darsliklar bilan internet ma’lumotlari bilan ishlashadi. Internetdan ham foydali ishslash usullarini ham shakllantiriladi. O’quvchilarning nafaqat balki uyda ham vaqtbekor o’tmasligini ta’milanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste’dod|| jamg\_armasi, 2008.
  2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2011.
  3. Ro’zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi / Metod.qo’ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
- Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari // Kasb-hunar ta’limi j. – T.: 2002. - №56. – 28-29-b.



## INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA KIMYO FANINI O'QITISH

Kurbanova Shoira Kamiljanovna

Xorazm viloyati Gurlan tumani  
15-umumiy o'rta ta'lif maktabi  
kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo darslarida interaktiv usullar yordamida kimyo fanini o'qitish haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv metodlar,  $3 \times 3$ ,  $4 \times 4$ ,  $5 \times 5$  metodlari.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlaga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqt bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollilikni ta'minlaydi.

O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi.


Interaktiv meiodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyixalash uchun esa o'qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi lozim.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning chala tarjimasi ko'p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlashish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvoxi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganinggiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir.



3 X 3, 4 X 4, 5 X 5 metodlari



Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o'quvchilardan o'r ganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra o'qituvchi mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan uchta (to'rtta, beshta va hokazo) to'g'ri va unga teng nisbatda (uchta, to'rtta, beshta) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgililar, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo'lim, bob)ga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- O'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimi yaratadi;
- O'quvchilar mavzu (bo'lim, bob) ga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va dahldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- O'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

2. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013.



## INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA KIMYO FANINI O'QITISH

Turdiyeva Barchinoy Homidjon qizi

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

2-umumiyl o'rta ta'lif maktabi

kimyo fami o'qituvchisi

+998911427005

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo darslarida interaktiv usullar yordamida kimyo fanini o'qitish haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv metodlar, 3 x 3, 4 x 4, 5 x 5 metodlari.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlaga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqt bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi.

O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi.


Interaktiv meiodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyixalash uchun esa o'qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi lozim.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning chala tarjimasi ko'p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlashish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metoddha o'zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvoxi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganining emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir.



**3 X 3, 4 X 4, 5 X 5 metodlari**



Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko‘ra o‘qituvchi mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan uchta (to‘rtta, beshta va hokazo) to‘g‘ri va unga teng nisbatda (uchta, to‘rtta, beshta) bo‘lgan va noo‘rin qo’llanilgan tushunchalar (so‘zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O‘quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo‘lim, bob) ga taalluqli bo‘lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. Metodni qo’llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- O‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzu (bo‘lim, bob)ga oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimi yaratadi;
- O‘quvchilar mavzu (bo‘lim, bob) ga oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va dahldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- O‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta‘minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ro’zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi / Metod.qo’ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
2. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne‘matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to’plami / Met.qo’ll. O’rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida innovatsion ta‘lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013.




## KAL SINATSIYA QILINGAN SODA MAXSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH

Jumayeva Dilrabo Mirzoqobilovna,  
o‘qituvchi, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar  
7-umumiy o‘rtalim maktabi

**Annotatsiya:** Soda qadim zamonlardan ma’lum bo‘lib, uni dengiz o’simliklari kulidan ajratib olingan shu usul bilan olingan soda shisha sanoatida va kiryuviish vositasi sifatida foydalanilgan. Sanoatning rivodjlanishi bilan soda maxsulotlariga talab kun sayin oshib boradi.

**Kalit so’zlar:** Sodani eritish, ammiakli usul, bikarbonat, osh tuzi eritmasi, chukmadan ajratish.

Leblan natriy sulfatidan soda ishlab chiqarishni qo‘yidagi reaksiya bo‘yicha tavsiya qiladi.




Olingan qotishmadan suv yordami bilan sodani eritib olinib, eritmasi bo‘g‘lanib qattiq soda olingan. SaS esa tashlanilgan. Tabiiy  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  bo‘lmagan mamlakatlarda  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ni osh tuzini sulfat kislotasi bilan parchalab olingan. Uz vaqtida Leblan usuli kimyo sanoatini rivojlanishida ma’lum rol o‘ynaydi. Leblan usuli bilan soda olish uchun tabiiy  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ , yoki bo‘lmasa osh tuzi va ko‘p miqdorda sulfat kislotasi bo‘lishi kerak.

Yuqoridagi usul ammiakli usul bilan atalib, olingan maxsulot tozaligi ishchi kuchi kam sarf bo‘ladigan, uzliksiz ishlovchi texnologiya, energiya kam sarf qiladigan deyarli kchiqindisiz texnologiya bilan farqlanadi. Xom ashyo sifatiada tabiyatda etarli miqdorda uchraydigan orzon osh tuzi va ohak toshidan foydalaniladi.


Shunday qilib ammiakli usul bilan olingan maxsulot soda toza va orzon bo‘ladi. Ammiakli usul bilan sodani olish bikarbonat orqali ketadi, ya’ni bikarbonat oraliq maxsulot bo‘lib hisoblanadi:



Bikarbonat o‘z navbatida osh tuzining suvdagi eritmasi  $\text{NH}_3$  va  $\text{CO}_2$  bilan ishlash natiasida olinadi:




Dioksid uglerod osh tuzi eritmasida yomon erishi sababli, avvalo eritma ammiak bilan to‘yintirilib, so‘ngra  $\text{SO}_2$  bilan ishlanadi. SHuning uchun soda ishlish jarayoni ikki bosqichdan iborat: 1chi bosqich osh tuzi eritmasini ammiak bilan to‘yintirish, 2-chi bosqich to‘yingan eritmani  $\text{CO}_2$  bilanishlash. Natijada cho‘kmaga  $\text{NaHCO}_3$  tushadi. So‘ngra uni filtrlab ajratib olinadi. Qizdirilgan sodani olish uchun  $\text{NaHCO}_3$  160-180°S darajada parchalanadi:




Bu jarayon maxsus kalsinatsiya bo‘limida ketib, ajralib chiqqan  $\text{CO}_2$  karbonizatsiya bo‘limiga yuboriladi.

Sarf bo‘lgan ammiakning qaytaishlatish maqsadida (2) reaksiya bo‘yicha xosil bo‘lgan  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ohak suvi bilan parchalanadi:



Soda ishlab chiqarish texnologiyasi osh tuzi eritmasi tayyorlashdan boshlandi. Osh tuzi eritmasi turli tabiiy aralashmadan tozalanishi kerak. Eritmada kalsiy va magniy tuzlari bo‘lishi mumkin. Uning uchun eritma soda yoki ohak suti bilan ishlanib, magniy va kalsiy yamon eruvchan birikmaga aylanib chukadi:



Eritma chukmadan ajratilib maxsus erostiga kumilgan quvirlar orqali ishlab chiqarishga junatiladi. Eritma, qo‘yidagi tarkibga ega: NaCl – 103,6 shartli shkala bo‘limi bo‘yicha (1 normal bo‘limi 1/20 ekv. Moda birl. eritmaga),  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  – 0,06;  $\text{NaCl}_2$  – 1,14;  $\text{MgCl}_2$  – 0,3;  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  – 1,04. Eritmani NH3 bilan to‘yintirish bo‘limining texnolgik sxemasida ifodalanadi.

### Adabiyotlar:

- Axmetov N.S. Obhaya i neorganicheskaya ximiya. Uchebnik dlya Vuzov 4-e izd., Moskva, Vo’sshaya shkola, 2002.-743 s.
- Parpiev N.A., Muftaxov A.G., Rahimov H.R. Anorganik kimyo.-Toshkent: “O’zbekiston”, 2003.-504 bet.



SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISHNING UMUMIY MASALALARI

Ibragimova Farida Ibragimovna

Xorazm viloyati Urganch shahar  
17- sonli maktabning kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishning umumiyligi masalalari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sinfdan tashqari ishlar, mazmun – mohiyati, mashg'ulotlar.

Kimyodan sinfdan tashqari ishlar – bu dars jadvalidan, odatdagi dars mashg'ulotidan tashqari o'tkaziladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlar sistemasidir.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'ziga xosdir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'zining maqsadi va mazmuni jihatdan ham, shakli va metodlari jihatidan ham sinf mashg'ulotlaridan farq qiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar, sinfda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning aksincha, butunlay ixtiyoriy asosda tashkil etiladi. O'quvchilar sinfdan tashqari mashg'ulotlarga ixtiyoriy qatnashadilar. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning ehtiyojidan va ijodiy ishga bo'lган tabiiy intilishidan kelib chiqadi.

O'quv mashg'ulotlari, sinfda o'tkaziladigan mashg'ulotlar umum davlat dasturini albatta bajarish kerakligidan kelib chiqsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish zarurligidan kelib chiqadi. Kimyoga bo'lgan havas, boshqa har qanday fanga bo'lgan havas kabi, o'quvchilarda hosil qilinadi, o'stiriladi va chuqurlashtiriladi. O'quvchilar kimyo bilan tanisha boshlagan vaqtlarida ular, asosan, kimyoviy hodisalarining tashqi, qiziqarli tomonlariga: moddalarning o'z - o'zidan o't olishiga, portlashlarga, moddalar tusining o'zgarishiga va boshqalarga qiziqadilar. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar sinfda o'rganiladigan dastur materialining kamini to'ldirishga emas, balki uni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Yoshlarimizni kimyoning eksperimental tomoni-moddalar hosil qilish, ayniqsa, amaliy hayotda ishlataladigan moddalar hosil qilish va ularning xossalalarini tekshirish, asboblar yasash, ayniqsa, hozirgi zamonda kimyoviy ishlab chiqarishlarining ishlaydigan modellarini yasash, hozirgi zamonda kimyosi va kimyo sanoatimizning, muvaffaqiyatlari, kimyo tarixi, vatanimiz kimyogarlarining hayoti hamda ijodi va ko'pdan - ko'p boshqa masalalar qiziqtiradi.

Yoshlarimiz nazariyani amaliy hayot bilan chambarchas bog'lashga imkonli boricha harakat qiladilar. Ba'zi o'quvchilar bir sohaga, ba'zi o'quvchilar esa boshqa sohaga qiziqadilar. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar, sinfda o'tkaziladigan mashg'ulotlaridan farqli o'laroq, asosan, o'quvchilarning mustaqil ish metodlariga tayanib tuziladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, har qanday pedagogika protsessida bo'lgani kabi, bayon etish metodlari: yirik olim va mutaxassislarining leksiyalari, kinoseanslar, ekskursiyalar o'tkazish katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida qanchalik ko'p ishlasalar, maktabda sinfdan tashqari mashg'ulotlar shunchalik samarali va shunchalik qiziqarli bo'lib o'tadi. O'qituvchi sinfdan tashqari mashg'ulotlar vaqtida o'quvchilarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilib turadi. O'qituvchi kimyoviy eksperimentni bajarishga qanday kirishish kerakligi, ishlaydigan modelni qanday yasash ma'qulroq ekanligi va shu kabilalar to'g'risida maslahatlar beradi, adabiyot tavsiya etadi, kimyoviy tajriba o'tkazish texnikasining eng qiyin va o'quvchilarga uncha ma'lum bo'lmasan usullarini ko'rsatib beradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning umumiyligi savyasiga va tayyorgarligiga qarab o'tkaziladi.

O'quvchilar xilma-xil narsalarga qiziqadi, ammo kuzatishlarning ko'rsatishicha, o'quvchilarning nimalarga qiziqishiga qarab, ularni uch guruhga bo'lishi mumkin: Bir guruh o'quvchilarini (asosan VII sinf o'quvchilarini) moddalarning o'zgarishi, qiziqarli kimyo tajribalari, moddalarni tozalash va moddalarni ajratib olish, kristallar hosil qilish va kristallar o'stirish; oddiy moddalar va kimyoviy birikmalardan kolleksiyalar tuzish, shuningdek, buyuk kimyogarlarning hayoti va faoliyatiga oid eng yorqin faktlar ko'proq qiziqtiradi. Ikkinchchi guruh o'quvchilarini (asosan VIII - IX sinf o'quvchilarini) moddalarning ancha murakkab o'zgarishlari, kimyo sanoati masalalari, gazlar bilan qilinadigan tajribalar, kimyoviy jarayonlarni, jumladan, eng muhim hozirgi zamonda kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan asboblar va ishlaydigan modellar yasash, eksperimental masalalarni mustaqil suratda yechish qiziqtiradi. Uchinchi guruh



o'quvchilarni (o'rta maxsus kasb – hunar ta'limi) ancha qiyin nazariy va eksperimental masalalarni yechish, kimyoviy analiz, hozirgi zamon kimyosi va kimyo sanoati muammolari vatanimiz kimyogarlarining ilmiy faoliyati qiziqtiradi.

Kimyodan sinfdan tashqari mashg'ulotlar ta'lim-tarbiyaviy jarayoning muhim tashkiliy shakllaridan biri. Bu mashg'ulotlarda o'qituvchining shaxsi, uning dunyorashi, nazariy va ma'naviy barkamolligi o'quvchilarga ko'proq ta'sir qiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni ma'lum talablarga javob berishi kerak.

**1. Ilmiylik.** Bu sinfdan tashqari ishlarning muvaffaqiyatining muhim omilidir.

**2.Tushunarlilik.**Ishning mazmuni maktab dasturidan uzoq bo'lmasligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, ularning bilim olishga, tadqiqot ishlariga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga yordam berishi kerak.

**3. Aktuallik va hayot bilan bog'liqlik.** Qishloq maktablari uchun qishloq xo'jaligi sohasidagi mavzular, kimyo sanoati rifojlangan shaharlarda tegishli sanoat sohasiga mos mavzular tanlanishi kerak.

**4. Qiziqarli va maroqlilik.** Sinfdan tashqari ishlar uchun eng muhimi, u o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi zarur.

#### **Kimyo bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarning shakli va turlari.**

Kimyo bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarning shakllari	Kimyo bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari
Individual(yakka tartibda)	Adabiyot bilan ishlash, doklad va referat tayyorlash, kimyoviy kabinetni jihozlash.
Guruh holida	Kimyo to'garagi, devoriy gazeta chiqarish, stendlar tayyorlash.
Ommaviy(yalpi)	Kimyoviy kecha, olimpiada, kimyo haftaligi ( o'n kunligi, oyligi), viktorina, kimyoviy soat, kontsert-ma'ruza, konferensiya, ekskursiya, kimyoviy jamiyat va boshqalar.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Авезов Р., Авезов М.Р. Қизиқарли химия.- Тошкент: Ўқитувчи,1973.-215 б.
2. Алексинский В.Н. Занимательные опыты по химии. - М.: Просвещение, 1995.-180 с.



## HOZIRGI KUNDA KIMYO DARSLARINI ZAMONAVIY TASHKIL ETISH

Kuchkarova Xurshida A'zamjonovna

Namangan viloyati Kosonsoy tumani

44-maktabning kimyo fani oqituvchisi

tel:99-868-21-50

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda kimyo darslarining zamonaviy ta'lif texnologiyalari asosida tashkil etish, darslarda interfaol ta'lif texnologiyalarining qo'llash, didaktik o'yin texnologiyalari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lif texnologiyalari, interfaol metodlar, metallar, metallmaslar, texnikaviy taraqqiyot.

Jamiyat rivojidagi ilmiy – texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashtirishga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashrirish jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon bo'lib, ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib boradi, ular evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatlari hal etilishiga asos soladi.

Texnologiyalashtirish tushunchasini bevosita pedagogik jarayonlar bilan bog'lasak, u holda ta'lif- tarbiya qonimiyatlarini amalga oshirish, ularning yangi qonuniyatlarining o'ziga xos qirralarini kashf etish asosida umumiyligi maqsadga erishish- ijobiyligi sifat o'zgarishlariga ega bo'lgan barkamol avlod shaxsini shakllantirish tushuniladi. Yoki pedagogik texnologizatsiyani shaxsda yangi sifat o'zgarishlarini loyihalovchi, kutilajak natijani kafolatlovchi, ta'lif- tarbiyani tashkil etish, boshqarish va amalga oshirishning tizimli jarayoni, deb tushunish mumkin.

Texnologiya tushunchasi "Texnologiya"- grekcha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta'lifot ma'nosini anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o'zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiya ta'lif modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashtirishning tizimli usulidir. (YUNESKO)

"Pedagogik texnologiya- ta'lif maqsadlariga va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni mutassil ravishda rivojlantirish tizimini loyihalashdir" (N.Azizzoxo'jaeva). Pedagogik texnologiyalar ta'lif- tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir.

### “Qo'sh sharlar”o'yin texnologiyasi

Turli rangdagi sharlarga metallar va metallmaslar yoziladi. Ishtirokchilar sharlarning rangiga e'tibor berib yozilgan harfning jufti qaysi sharda ekanligini topadilar.

Masalan: Metallar

Ag, Au, Cu, Zn, Al, Fe

Metallmaslar

O<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>, He, Ne, Cl<sub>2</sub>, Br<sub>2</sub>



Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o'tilgan (chorak) o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularini o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib



baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Uslubning maqsadi. O'quvchilarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Borisov I.N. «Kimyo o'qitish uslubiyoti». T.: «O'qituvchi». 1966.
2. Abdullayev Sh.B. «Kimyo o'qitish uslubiyotidan ma'ruzalar matni». Namangan ,Faxrizoda xususiy kichik korxonasi, 2002.



## MAVZULARNI O’QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Mirsiddiqova Sojida Qobilovna  
Navoiy viloyati Karmana tumani  
15-maktab kimyo fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo fanining o’qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** interfaol metodlar, pedagogic texnologiya, samaradorlik, natija.

Respublikamizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan isohotlar ta’limni, jumladan kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va rivojlantirishni talab etadi. Shu bois ta’lim tizimini davr talablari va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali o’quvchi-talabalarni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan har tomonlama yetuk va yuksak ma’naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalash davlatimizning ustuvor yo’nalishlaridan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida etiladigan darsdan ko’zlangan asosiy maqsad mazkur hujjatlarda ko’rsatilgan vazifalarni amalga oshirish, Davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturi va rejali talabalabriga asoslangan holda o’quvchi-talabalarda bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish, shu orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularning siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda mustaqil yo’l topa olishlariga erishishdir. Shuning uchun ham bugungi kunda dars jarayonini ta’lim nazariyasi faoliyati nuqtayi nazaridan qarab chiqib, ta’lim sohasidagi barcha darslarni pedagogik texnologiya yo’nalishiga o’tkazish va uni amalga oshirish, shu bilan birga kasbiy ko’nikma va malakalarini rivojlantirishda o’qitish vositalarini qo’llashga oid ta’lim mazmunini ishlab chiqish: o’quvchi-talabalar bilimini tahlil qilish, dars jarayonida hal qilinishi lozim bo’lgan maqsad va vazifalarni belgilash; ta’lim muassasalari o’quv darsturlabriga, fan mavzulariga pedagogik texnologiyani singdirirish; o’quvchi talabalarda ko’nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriq turlari – og’zaki savol-javob, yozma ish va testlarni, ularning egallagan bilim, ko’nikma va malakalari sifatini nazorat qilish hamda baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim. Bu Davlat ta’lim standartlari asosida pedagogik texnologiyani shakllantirish va amaliyotga joriy etish, darslarni tashkil etishda ularga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondoshuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondoshuvlar o’z navbatida o’quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o’zgarishlar olib kirmoqda-ki, ularning ko’pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog’liq [16]. So’nggi yillarda kimyo sohasida yaratilgan kashfiyotlarning ahamiyati oshib bormoqda. Chunki biz ishlayotgan plastmassa jihozlardan tortib kiyimlargacha kimyo olimlarining say-harakati bilan yaratilyapti. Xatto biz sevib tannovul qilayotgan xo’l mevalar pishib yetilgunga qadar ham kimyoviy o’g’itlar ishlatiladi. Shu sababli rivojlangan davlatlarning aksariyati kimyo sanoati rivojlanishiga katta e’tibor qaratmoqda. Albatta bularning barchasi kimyogar olimlar tomonidan yaratilmoxda. Buning uchun esa oliv va o’rtal maxsus o’quv yurtlarida kimyo fanini o’qitishni yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib boorish yaxshi natija beradi. Xo’sh, pedagogik texnologiya nima va uni kimyo fanini o’qitishda qanday qo’llash mumkin?

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida ta’lim-tarbiya masalalari bian bog’liq motivlar: ehtiyoj, talab, manfaat, qiziqish, maqsadlardan kelib chiqadi va ularni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, xuddi shunday motivlar har bir shaxsda, oilada ham mavjud. Jamiyat har bir a’zosining bilim darajasi ortib borishi shu jamiyat va davlatrivojining eng asosiy shartlaridan hisoblanadi. Bu shartlarning bajarilishi esa, o’z navbatida, pedagogik texnologiyaning qanchalik yuqori darajada ekanligiga bog’liq. Bundan esa pedagogik texnologiya shaxs, oila, jamiyat, davlat hayotida muhim ahamiyatga ega ijtimoiy ekanligi ko’rinadi. Elektron kutubxona XML texnologiyasi asosida ishlab chiqilib, kutubxona jarayonlarining avtomatlashtirishga qaratilgan. Mazkur tizim na’anaviy, kutubxonalarda, axborot resurs markazlarida, oliv o’quv yurtlarida qo’llanishi mumkin. Tizim mijoz-server texnologiyasi asosida ishlab chiqiladi va unda bibliografik ma’lumotlarni saqlashning XML texnologiyasidan unumli foydalaniladi. Virtual kimyoviy laboratoriya “Karnege-Mellon” iniversitetining “The Chem Collective/IrYdium Project



loyihasi doirasida yaratilgan bo`lib, uni internet orqali yuklab olish mumkin. Bundan tashqari o`quvchilarga kimyo sohasi bo`yicha ma`lumotlar bazasini yaratishni taklif qilish ham ularning bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta`lim sohasidagi o`zgarishlar, o`quvchilarni bilim olishiga bo`lgan qiziqishlarining yanada ortib borayotganligi har bir ta`lim hodimini quvontiradi.

O`qish davomida bizni o`qitayotgan ustoz yaxshi bir savol berib qoladilar. “Yangi pedagogik texnologiya usullaridan nima uchun foydalanamiz?”

Shu savolni har birimiz o`zimizga berib ko`raylik. Darhaqiqat, darsda turli xil usullar, o`yinlar, musobaqalar, motivatsiyalardan nima uchun foydalanamiz?!

Bilamizki, hozir bu savolga 80-90% o`qituvchi:

- Darsni qiziqarli chiqishi uchun;
- Eskirgan darsdan farq qilishi uchun;
- Bolalarni darsga qiziqtirish uchun deya javob berishadi, chunki bu hayolga kelgan birinchi javob, albatta, keyinroq esga kelishi mumkin – darsda yuqori samaraga erishish uchun degan javob ham.

Aslida ham darsni qanday o`tmaylik, unda qanday usulni qo`llamaylik, maqsadimiz yagona, ya`ni o`quvchilar ongiga o`rgatayotgan fanimiz qonuniyatlarini singdirish, bergen bilimlarimizni mustahkamlash va eng asosiysi o`quvchini bergen savolimizga fikrlab, tushungan holda to`g`ri va aniq javob berish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V.V. Skorcheletti. Teoreticheskaya elektroximiY. XimiY. 1969 g 608 s.
2. Grilixe S.Y. Obezjirovaniye, travleniye,I polirovaniye metallov.L: Mashinostroyeniye, 1976 g. 208s.
3. Kadaner L.I. Spravochnik po galvanostechii. Kiyev. Texnika. 1976 g.



## KIMYODA TASVIRIY METODLARNING ROLI

Mirzaliyeva Dilorom

Namangan viloyati Norin tumani  
14-maktab kimyo fani o'qituvchisi

**ANNOTASIYA:** Ushbu maqolada interfaol metodlar orqali o'quvchilarda fanga oid bilimlarining shakllantirish jihatlari aytib o'tilgan. Kimyoda tasviriy metodlarning roli haqida fikr yuritmoqchimiz.

**TAYANCH SO'ZLAR:** kimyo, metodika, “Koronavirus daf bo'l” usuli, “Shakllar” metodi, “Jadvaldan so'z topish”usuli, “Mazali mevalar” usuli, “Juft kolbalar” usuli

Bugungi kunda hayotimizga telefon, internet bizni asrimizga kirib keldi, bu o'z navbatida, ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Texnika asri, rivojlanish asrida o'quvchilar faolligini oshirish uchun hamda kimyo faniga qiziqishini oshirish uchun turli metodlardan foydalanishimiz kerak. Demoqchimanki, bugunning yoshlarni ham o'qishga bo'lgan talabi ham, mening nazarimda, o'zgarganday. Oldingiday faqat doska va bo'r bilan yaxshi natijaga erishish qiyin deb o'ylayman. Darsda tasviriy usullardan foydalanish, filmlar qo'yib ko'rsatish, o'quvchilarni faolligini oshirish uchun turli metod, usullardan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshiradi. Ta'lim usuli-ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu maqolada interfaol metodlar orqali o'quvchilarda fanga oid bilimlarining shakllantirish jihatlari aytib o'tilgan. Tanlangan metodni qo'llash orqali o'quvchilarning jamoada ishslash, mustaqil izlanish, erkin fikrlash, muammoli vaziyatlarning yechimini topa olish hamda maqsadli foydalanish kabi bilmalari rivojlanadi. 1-usul: “Koronavirus daf bo'l” usulida 14 ta savol tuzilgan, (undan ko'p va kam savol qo'yish mumkin) javoblar esa koronavirus shoxlarida berilgan. Bu usulni guruh bo'lib ishslashda, darsni mustahkamlash qismlarida qo'llasa bo'ladi. Formula va elementlarni o'zlashtirishda ham bu usulni qo'llasa yaxshi natija beradi. Darsda o'qituvchi bu savollarni navbatma-navbat o'quvchilarga beradi. O'quvchilar koronavirus shoxlarida joylashgan javoblar orasidan to'g'ri javobni topib olib tashlaydilar. Yoki kompyuterda slaydda to'g'ri javobni bossa, javob yo'q bo'lib ketadi va navbat bilan hamma shoxlari yo'qotiladi va koronavirus daf bo'ladi. 2-usul: “Shakllar” deb nomladim. Har xil shakllarda formulalar joylashtiriladi yoki elementlar joylashtirilib, ularning og'irligi, valentligi, xossalari, nomlari, toifasini va hakozo savol qilib berish mumkin. Bu usul ham o'quvchini o'ziga jalb qiladi, qiziqishini orttiradi, matematika fani bilan bog'lanadi va bilim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu usulda o'tgan darsni takrorlash, mustahkamlash qismida, guruh yoki yakka tartibda ishlaganda qo'llasa bo'ladi. Tarqatma sifatida ham ishlatsa yuqori natijalarga erishish mumkin. 3-usul: “Mazali mevalar” yoki “MM” deb nomladim. Har xil mevalarga (mevalarni ko'proq joylashtirsa ham bo'ladi) element yoki formulalar joylashtiriladi. Bu usulni afzalligi shundaki, hayot bilan bog'lanadi, o'quvchini fikrlashga undaydi, eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi, qiziqishini orttiradi, darsni faollashtiradi, o'ziga jalb qiladi. Savol qilib elementning nomi, ularning og'irligi, valentligi, xossalari, toifasini va hakozo savol qilib berish mumkin. Bu usulda o'tgan darsni takrorlash, mustahkamlash qismida, guruh yoki yakka tartibda ishlaganda qo'llasa bo'ladi. Tarqatma sifatida ham ishlatsa, yuqori natijalarga erishiladi.

4-usul: “Jadvaldan so'z topish”usuli. “Jadvaldan so'z topish”usulida jadvalda so'z yashiringan. Vertikal qator bo'yicha savollar berilgan, gorizontal qatorlarda esa javoblar berilgan. To'g'ri javob kesishgan katakdagi harflar tutashtirsa (qizil bilan ko'rsatilgan) so'z kelib chiqadi. Jadvaldagagi so'zni topish uchun yordamchi sifatida mantiqiy savol o'qib eshittiriladi. Bu usulni guruh bo'lib ishslashda, darsni mustahkamlash qismlarida, tarqatma usulida qo'llasa bo'ladi. O'quvchilarni izlanishga, bilimlarini mustahkamlashda, dars faolligini

5-usul: “Juft kolbalar” usuli. Bu usuldan tuzlar gidrolizi, dissotsiyalanish, eritmalar mavzularida qo'llasa yuqori natija beradi. Yana anorganik moddalarni toifaga ajratishda ham qo'llasa bo'ladi. Bu usulni guruh bo'lib ishslashda, darsni mustahkamlash qismlarida, tarqatma usulida qo'llasa bo'ladi. O'quvchilarni izlanishga, bilimlarini mustahkamlashda, dars faolligini



oshirishga katta yordam beradi. Kolbaga yopishtirilgan etiketka ranglari tuzlarning muhitining rangida ko‘rsatilgan, bu ham o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi va fikrlash, eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishga yordam beradi. Quyidagi PISA savollari ham o‘quvchini o‘ylantirib, faolligini oshiradi, kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, izlanishga undaydi. Xulosa shuki, birinchi navbatda, o‘quvchilar o‘z ustozlari darsidan har jihatdan mamnun bo‘lsinlar. O‘yaymanki, bu usullar o‘quvchilar tafakkurini rivojlanishini, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o‘qish-o‘rganish va mehnatga havasini kuchaytiradi. Dars jarayoning qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga, yuqori natijalarga erishishga, ruhiy kayfiyatlarini ko‘tarishga, asosiysi puxta bilim olishga katta yordam beradi deb o‘yayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I.R.Asqarov, N.X.To‘xtaboyev, K.G.G‘ofurov 7-sinf uchun darslik. 2017
2. I.R.Asqarov, N.X.To‘xtaboyev, K.G.G‘ofurov 9-sinf uchun darslik. 2019



## KIMYO FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Nafosat Murodova

Toshkent shahar, Uchtepa tumani  
236-maktabning Kimyo fani oqituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda organik kimyoni o‘qitishda o‘quvchilar bilimida bo‘shliqlar aniqlanmoqda. Ana shu bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan didaktik materiallardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** darslik, o‘quv dasturi, bo‘shliq, faoliyat, metodika, didaktika, pedagogika, kichik guruh, dars, o‘qitish.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilarfaoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega, ya’ni, har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’i nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilar tomonidan fanlar bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakkantirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqliqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o‘quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi hamda ta’limtarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metod texnologiyasining mohiyati o‘quvchilarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin babs-munozara sharoitini tug‘dirishdan iboratdir. Bu metodga ko‘ra darslar bir necha bosqichga bo‘linadi:

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilarni faollashtirish, mavzuining mazmun-mohiyatiga kirib borish, uni anglab etish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko‘zda tutiladi.

2. Fikriy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo‘llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo o‘quvchilarga fikriy hujum yo‘li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshitiladi va o‘qituvchi tomonidan yangi fikrlar tomonidan to‘ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jumlalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun sinf guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh topshiriq bo‘yicha o‘z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma’lum qiladi.

Organik kimyo fanini o‘tishda quyidagi didaktik o‘yinlarni qo‘llash mumkin:

**«Kim ko‘p yozadi» o‘yini**

**O‘yin tartibi:** o‘quvchilar oldida faqat qog‘oz va qalam bo‘lishi kerak. O‘yinni «Aromatik aminlar», «Aminokislotalar», «Oqsillar» mavzusi bo‘yicha o‘tkazish ayniqsa yaxshi natija beradi. Bu o‘yin uchun ma’lum vaqt belgilanadi. Masalan, «Aminokislotalar» mavzusi e’lon qilinadi



deylik, o‘quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o‘zlari bilgan barcha aminokislotalarni yozib chiqadilar. Yozilgan har bir aminokislota uchun bir ball beriladi. Ball sifatida rangli kartochkalar beriladi. O‘yinda eng ko‘p kartochka to‘plagan o‘quvchilar g‘olib hisoblanadi.

**“To‘g‘ri top usuli”**

**O‘yin tartibi:** Bu interfaol usulni deyarli barcha o‘quv fanlarida samarali qo‘llash mumkin. Masalan, aminokislotalarning bir nechtasining formulasi yoziladi (Gistidin, Lizin, Triptofan, Fenilanin, Metionin, Treonin, Leysin, Izoleysin, Valin, Argenin, Alanin, Prolin, Oksiprolin, Tirozin, Serin, Sistein, Sistin) shular orasidan almashinadigan, almashmaydigan aminokislotalarga mansub aminokislolar turini topishi lozim. 10 minut davomida o‘quvchi aminokislotalarni izohlab yozma javob berishi kerak. Kimning javobi puxta va aniq bo‘lsa u g‘olib bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o‘rganish jarayonida noan’anaviy usullarni qo‘llash o‘quvchilarning ilm olish imkoniyatlарини kengaytiradi. SHuningdek, ularning mustaqil fikrlashiga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishiga, darslik, qo‘srimcha ta’lim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishiga yordam beradi. Bu o‘rinda fan o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi va to‘liq qondirishi, ta’limning tashkiliy shakllarini tanlashidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tolipov O‘., No‘monova N.Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Xalq ta’limi.-Toshkent,2016.
2. A.Mavlyanov va boshqalar “Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish” Toshkent. 2018 y



## KIMYO TA'LIMIDA FAOL RIVOJLANTIRUVCHI VOSITALAR

Ollaberganova Dinora Sultanova Kamola

Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
10-son mактабning kimyo fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Kimyo darslarida differensiatsialash mavzularni mustahkamlash, takomillashtirish, natijalarni nazorat qilish hamda mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonlarida yaqqol namoyon bo'lishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tabaqalshtirish, differentsiyal yondoshish, umumlashtirish.

Kimyo fanining mazmunini, kimyoviy tushunchalarini asta-sekin rivojlanib borishi asosida, ma'lum tizimga solinishining o'zi, kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarni rivojlaniruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu borada o'quv jarayonining faollik xususiyati ham muhim ahamiyatga ega.

Kimyoning barcha bo'limlari birin-ketin rivojlanib boruvchi tushunchalar bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bu ularni bir butun tizimga birlashtiradi. Kimyo kursida atom-molekulyar ta'limot, davriy qonun, anorganik va organik moddalarning tuzilish nazariyasi, elektrolitik dissotsilanish nazariyasi kabi ta'limotlarning qo'shilib borishi fan mazmunining tuzilishi rivojlaniruvchi ta'limda asos bo'lib xizmat qilishidan dalolat beradi.

Bu borada faqat kuchaytirilgan savollar yetarli bo'lmay, aniq ma'lumotlarni davriy ravishda umumiylashtirish talab etiladi. Umumlashtirish – bu fikrlash faoliyatining yuqori darajasidir. Qolgan barcha fikrlash usullari o'quvchilarni umumlashtirishni o'rgatishga tayyorlaydi. O'rganilgan ob'ektlar orasidagi bog'liqliklar izlansa, shunda umumlashtirish amalga oshadi.

Umumlashtiriluvchi manba kimyoviy masalalar, qiziqarli ma'lumotlar yoki turli o'qitish metodlari bo'lishi mumkin. Umumiy o'rta ta'lim tizimida kimyo fanini o'qitishda maxsus umulashtiruvchi mavzular bor. Masalan, anorganik moddalarning asosiy sinflariga doir bilimlarni umumlashtirish, anorganik kimyoga doir bilimlarni umulashtirish, organik kimyoga doir bilimlarni umumlashtirish kabi mavzular o'tiladi va savol-javoblar, genetik bog'lanishga doir mashq va masalalar yechish orqali mustahkamlanadi.

Bilishning oxirgi bosqichi umumlashgan bilimlarni aniqlashtirish va amaliyatga bog'lashdan iboratdir. Shuni ham yodda saqlash kerak-ki, nazariyaga haddan ziyod berilish, rivojlanishga olib kelmay, sxolastik tasavvurlarni shakllanishiga olib keladi.

Kimyo ta'limida faol rivojlaniruvchi vositalarga quyidagilar kiradi:

- muammoli o'qitish;
- ko'rgazmali va texnik vositalardan keng foydalanish;
- bilimlarni tizimli nazorat qilish;
- o'quvchilarga differentsiyal yondoshish.

O'quv jarayoning eng muhim vazifalaridan biri uning rivojlaniruvchi xususiyatga ega bo'lisdigidir. O'quv jarayoni o'zining rivojlaniruvchi vazifasini muvaffaqiyatli bajarish uchun, kimyoviy mavzularning mazmuni maxsus uslubiy ishlov berishni, o'quv jarayonini o'ziga xos tashkil etilib, har bir o'quvchining psixologiyasiga chuqr kirib borishni talab etadi.

Kimyo o'quv fanining mazmunini sistemali yozilishi ham kimyoni o'rganishda o'quvchilarni rivojlaniruvchi vositasi bo'lishi mumkin, chunki uning asosida kimyoviy tushuncha va bilimlarning bosqichma – bosqich rivojlaniruvchi yotadi, shuningdek o'quv jarayonining faolligi ham rivojlaniruvchi vositasi bo'la oladi. Sistemalilik mакtab kimyo kursi dasturida aniqlangan bo'ladi va u sinfdan sinfga tomon o'quvchilarning rivojlanish darajasi oshishini ko'zda tutadi, o'quvchilarning moddalar va ularning o'zgarishlari to'g'risidagi tassavvurlarni boyitib borilishiga quyidagicha yondashadi.

VII sinfda atom molekulyar ta'limot va kimyoviy element to'g'risidagi tasavvurlar;

VIII sinfda elementlar va ular birikmalarining davriy o'zgarishi va moddalarning tuzilishi hamda ionlarga ajralishi to'g'risidagi;

IX sinfda organik moddalaring tuzilishi, ularning hosilalari, kimyoviy reaksiyalari, muhim tushunchalar to'g'risida tasavvurlar yordamida o'quvchilarning bilimi, tafakuri rivojlanadi. Masalan, VII sinfda kimyoviy reaksiyalari yangi moddalar hosil bo'lishga olib keladigan hodisalar deb qaralsa va reaksiyaga kirishuvchi va reaksiya mahsulotlarining soni bo'yicha sinflarga ajratilsa, VIII sinfda oksilanish - qaytarilish, qaytar va qaytmas, ionli reaksiyalari haqida dastlabki bilimlar



beriladi.

Bulardan tashqari rivojlantiruvchi o'qitishga sharoit yaratuvchi vositalarga o'quv jarayonini faol olib borish, muammoli o'qitish, ko'rgazmalilik asosida dars o'tish, o'quvchilarga differentsial yondashish va boshqalar kiradi. Differential yondashish shundan iborat-ki, har bir o'quvchining o'ziga xos xarakteri, bilim darajasiga qarab turli topshiriqlar, beriladi. Ma'lum mavzu bo'yicha beriladigan savollarning qiyinchilik darajasi ortirib boriladi. O'quvchilar birinchi navbatda qiyinroq savollarga javob berishga harakat qiladi. Javob topish uchun adabiyotlardan foydalanadi. Differential yondoshuvning ma'nosi shundan iboratki, o'quvchilar ma'lum metodlar va didaktik vositalar asosida ularning o'zlashtirishi hamda rivojlanishiga imkon beruvchi guruhlarga ajratiladi (tabaqlashtiriladi).

Differensiatsialash har xil xususiyatlarga qarab amalga oshirilishi mumkin. Ko'pincha o'qituvchilar sinf ichida o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqlashtirishdan foydalanadi. Differensiatsialash mavzularni mustahkamlash, takomillashtirish, natijalarni nazorat qilish hamda mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Yangi mavzularni tushuntirishda agar butun guruh o'zlashtirish darajasi bir-biriga yaqin o'quvchilardan shakllantirilgan bo'lsagina saviyasiga ko'ra differentsial yondoshuvni amalga oshirish mumkin.

Savollar qiyinlik darajasi ortib borish tartibida tuziladi. Birinchi savolga javob berish uchun faqat reproduktiv (esda saqlab qolgan) javob, ikkinchisi uchun taqqoslash, uchinchisi uchun o'zaro bog'liqliklarni analiz (tahlil) qilish, to'rtinchisi uchun bilimlarni umumlashtirish hamda keng ko'lamli bog'lanishlarni aniqlash kerak bo'ladi. Baholash jarayoni ham yengillashadi hamda haqqoniy ravishda amalga oshadi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. M.A. Qo'chqorov, Kimyo fanini o'qitishning rivojlantiruvchi xususiyatini oshirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2012.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: 2018



## KIMYO DARSLARIDA “PROBIRKA” METODINI QO’LLASH USULLARI

**Paluaniyazova Feruza Bazarbaevna**

Nukus shahri QDU akademik  
litseyi kimyo fani o'qituvchisi

**Xalmuratova Gulbahar Polatovna**

Nukus shahri QDU akademik kimyo fani o'qituvchisi

**Berdisheva Gulayda Abishovna**

Nukus shahar 15 -son maktabning  
kimyo fani o'qituvchisi


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo darslarida interfaol metodlardan foydalanishning afzalligi, kimyo laboratoriya ishlari va darslarida probirka metodini qo'llash usullari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kimyo, probirka, ion, ta’lim, usul, interaktiv metod, laboratoriya, gidroliz, eritma, malaka, ko’nikma.


Ta’lim tizimida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini, o‘zaro yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Biz quyida kimyo darslarida qo’llaniladigan ayrim metodlar bilan tanishamiz.

Kimyo laboratoriyasida “probirka” metodini qo'llash. O’zbekiston Respublikasida ta’limtarbiya tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko’tarish va ta’limning uzlusizligini ta’minlashning asosiy maqsadlari va shart sharoitlari belgilab berildi. Uzlusiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, hamda o’rta ta’lim sifatini tubdan oshirish hozirgi kunda ta’lim sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Shunday ekan, biz o'qituvchilardan talab qilinayotgan asosiy masala bu, o‘quvchini fanga qiziqtirishdir. Xo’sh buning uchun biz nimalarga e’tiborimizni qaratishimiz lozim. Asosan e’tiborimizni kimyoda nazariy mashg’ulotlar bilan birgalikda laboratoriya ishlari qaratishimiz lozim. Nimaga aynan laboratoriya, sababi laboratoriya ishlari bolani ko’rganlari bo'yicha fikrlashga, izlanishga, tafakkurini orttirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, savodxonligini oshirishda asosiy o'rinni egallaydi. Bu mavzuning dolzarbli shundaki, XXI asr - axborot asri hisoblanib, pedagogdan har bir mashg’ulotlarda interfaol usullardan, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda olib borishni talab qilinmoqda. Shunga asoslanib, o‘quvchilarda laboratoriyanı bajara olish ko’nikmasini hosil qilish kerak.

Laboratoriya ishini o‘quvchiga bajarib ko’rsatgan bilan, u yerda sodir bo’ladigan kimyoviy prosseslar va qonuniyatlarni chuqur o’rganishlari va tushunib olishlari qiyin bo’ladi. Buning uchun biz o‘quvchiga kimyoviy jarayonlarni tushunishlariga imkon yaratishimiz kerak. Bu jarayonni tushunib olishimizda bizga “**Probirka**” metodi yordam beradi. Masalan, elektrolitik dissotsiyalanish mavzusida suvda eritib ko’rsatib beramiz, lekin ionlarga ajralish jarayoni oddiy ko’z bilan ko’rib bo’lmaydi. O‘quvchida tasavvur hosil bo’lishi uchun, quyidagi slaydlarni ko’rsatish mumkin:



Bajarilgan laboratoriyalarni mustahkamlash uchun quyidagicha topshiriqlar berilsa o‘quvchilar mavzuni yanada chuqurroq anglab olib bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.



Probirka metodini tuzlar gidrolizi mavzularda qo'llasa xam yaxshi natijalarga erishish mumkin. Muhitni bir biridan ajratishda o'quvchilar ko'pincha qiyinalishadi, bunda xam probirka metodidan foydalansila maqsadga muvofiq bo'lar edi. Neytral muhitda eritmada vodorod va hidroksid ionlari konsentrasiyasi bir-biriga teng bo'ladi. Kislotali muhitda vodorod ionlari konsentrasiyasi hidroksid guruhi konsentrasiyasidan ko'p bo'ladi. Ishqoriy muhitda esa hidroksid guruhi konsentrasiyasi vodorod ioni konsentrasiyasidan ko'p bo'ladi va buni probirka metodida aniq ko'rsatish mumkin.



Muhitni aniqlashda ham probirka metodidan foydalansa, o'quvchini o'ziga jalb qilib, qiziqishini orttirardi.

Buyuk kimyogar olim D.I.Mendeleyev kimyodan o'tkaziladigan tajribalar haqida quyidagi fikrlarni aytgan: "Bu fanni o'rganishdagi mohirlilik, tabiatga savol bilan murojaat qilish va uning javobini laboratoriya tajribalari va kitoblardagi nazariy tushunchalar hamkorligida eshita olish san'atidir" Laboratoriya mashg'ulotlarida kimyoiy tajribalarni bajarish, kimyo fanini muvaffaqiyatli o'rganishning eng zaruriy shartlaridan biridir. Ana shu maqsad yo'lida kimyoiy qonuniyatlarni chuqur o'rganish eng muhim oddiy va murakkab moddalarining xossalari bilan kimyoiy tajribalar vositasida tanishish orqali o'quvchilar ongida nazariy o'quv materiallarini mustahkamlash vazifasini qo'yadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Asqarov I.R , G'ofurov K.G. "Kimyo asoslari" o'quv qo'llanma.
- Otaxonova Z. Conferences.uz materialari. Kimyo laboratoriyasida "probirka" metodini qo'llash.
- Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X., G'ofurov K.G. 7-sinf uchun darslik. Toshkent. 2019.
- Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X., G'ofurov K.G. 9-sinf uchun darslik. Toshkent. 2019.



## KIMYO DARSALARIDA MUAMMOLI TA’LIM

Rajabbayeva Lobar Shuxrat qizi

Xorazm viloyati Xiva shahar Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab internati kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo ta'lifi sifat samaradorligini oshirishda muammoli ta'lif usulining o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kimyo, muammoli ta'lif, dars, vaziyat, uglerod, valentlik, etilen.

O'quvchilar puxta va chuqur bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishlari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlari uchun faqat asosiy o'quv materialini takrorlash va puxtalashning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki bilimlarini mustaqil ravishda takomillashtirish va tizimlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun, ular yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etishiga erishish kerak. Muammoli ta'lif uslubini samarali qo'llash uchun har bir o'tiladigan mashg'ulot davomida maqsadga muvoqiq ravishda tayyorlov bosqichda muammolarni tanlab olish, ularni yechimini ishlab chiqish va texnologik xaritani tuzish zarur.

Muammoli vaziyatlarni tuzishning quyidagicha usullari mayjud:

- qarama-qarshilik vaziyat sodir qilinadi va uning yechimini o'quvchilar mustaqil ravishda o'zlarini topishlari taklif etiladi;
- bir savolga turli nuqtai nazardan qarash bayon qilinadi;
- amaliy faoliyatda duch keladigan qarama-qarshiliklar ma'lum qilinadi;
- o'quvchilar taklif qilingan vaziyatni taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga, dalillarni solishtirishga da'vat etiladi;
- aniq savollar qo'yiladi (umumlashtiruvga, asoslovga, tizimlashtirishga, mantiqiy va ijodiy fikr yuritishga);
- muammoli nazariy va amaliy vazifalar belgilanadi;
- quyidagi muammoli vazifalar qo'yiladi: ortiqcha yoki yetarli bo'limgan dastlabki ma'lumotlar bilan, savolni noaniqlik yoki qarama-qarshilik ma'lumotlar bilan, bilib qilingan xatolar bilan belgilangan vaqt ichida ruxiy sustlikni yengish.

Kimyo darslarini o'qitishda ushbu uslubni qo'llash imkoniyati fanning mazmuni va tuzilishidan kelib chiqadi. Buning uchun ilmiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan fanning asosiy muammolari ajratib olinadi: modda molekulasingin tuzilishini aniqlash (struktura, fazoviy, elektron); moddalarning xossalari ularning tuzilishi va amaliy ahamiyatini esa xossalari bilan bog'liqligini; turli xil mineral va tabiiy xomashyolardan moddalarni olinish usullarini aniqlash: Organik birikmalar sinflarini va ayrim birikmalarini o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan xususiy va aniq muammolar yuqorida keltirilgan asosiy muammolar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Darsni kirish qismidan quyidagi muammo kelib chiqadi: organik moddalarning turli tumanligi va xayotimizda juda katta ahamiyatga ega ekanligi sababi nimada? Organik kimyo fani mana shu asosiy muammoni yechish bilan bog'liq va so'nggi umumlashtiruvchi mashg'ulotlarda ham ushbu masalalar xal etiladi. Yanada aniq muammolar "Organik moddalarni kimyoviy tuzilish nazariyasi" mavzusini o'rganishda sodir bo'ladi. Tinglovchilar birinchi marotaba moddalarni tarkibi bilan tanishtirilganda ulardagagi uglerod valentligi bo'yicha avvalgi nazariy tushunchalari qarama-qarshilikka olib keladi va ana shu muammolarni yechimini izlash maqsadida tuzilish nazariyasi o'rganiladi. Muammoni bayon etib o'qituvchi o'quvchilarni ushbu muammoni yechimiga yo'naltiradi va ularni javoblarini tinglab, umumlashtirib, xulosa qilib so'ngra o'zi muammoni yechish yo'lini izoxlaydi.

O'quvchilar nazariyani asosiy qoidalarini o'rganganlaridan so'ng organik kimyoning yetakchi muammosi – moddalarning xossalari ularning tuzilishiga bog'liq ekanligi kelib chiqadi va ushbu muammo butun kurs davomida yechiladi. Masalan, to'yinmagan uglevodorodlar o'rganilganda qator muammolar kelib chiqadi. Mavzuning eng yetakchi muammosi - yangi tuzilishga ega bo'lgan moddalarning, ularning xossalari qanday ta'sir etishi. Etilenni molekulalar massasi, uning formulasini aniqlanishi, uning molekulasi ikki atom uglerod va to'rt atom vodoroddan iboratligi uglerodning valentligi bilan qarama-qarshilikka olib keladi va molekulani struktura, fazoviy va elektron tuzilishini aniqlanishi talab qilinadi. Ushbu muammoning yechimini o'qituvchi



tushuntiradi. Hamma organik birikmalarda uglerod to'rt valentli bo'lishi kerak va etilen qanday tuzilishga ega ekan degan muammo tug'iladi. Kimyoviy bog'lanishning o'ziga xosligini aniqlash quyidagi savolni tug'diradi: moddalarni xossalari u qanday ta'sir etishi mumkin? O'qituvchi avval etilenni ilgari o'rganilgan to'yingan uglevodorodlar bilan taqqoslaydi: etilen tuzilishi bo'yicha metan yoki uning birona gomologiga o'xshaydimi? degan savolni beradi. Ayrim o'quvchilar etilenni etanga o'xshatadilar chunki ularda uglerod soni teng va u to'rt valentli. Boshqa o'quvchilar esa struktura va fazoviy tuzilishlardagi farqlarga asosan etilen o'z xossalari bo'yicha to'yingan uglevodorodlardan farq qiladi degan xulosaga keladilar. Chunki uglerod atomlari qo'sh bog' orqali bog'langan bo'lib, ulardan biri bo'shroq bo'ladi va u oson uzilishi mumkin. Uglerod to'rt valentlilagini saqlab qolishi uchun etilen molekulasi boshqa atomlarni biriktiradi. Shunday qilib, ikki xil fikr aytildi: etilen xossalari bo'yicha etanga o'xshaydi, yoki undan farq qiladi. Bunda etilenni kimyoviy xossalari reaksiyalarini bajarib ko'rish bilan muxokama qilinadi. Asta – sekin o'quvchilar muammolarni yangi o'ziga xos qirralarini ko'radilar va bu keyinchalik chuqurlashadi va kengayadi.

Muammolarni qo'yilishi va yechimida o'quvchilarni ishtirok darajasi turlicha. Birinchi darslarda xali o'quvchilarni bilimi mustaqil ishlashga yetarli bo'lmaganda, o'qituvchi qo'yilgan muammoni ichki qarama – qarshiligini ko'rsatishdan tashqari, taxminlar qiladi, uni muxokama qiladi, xaqiqatni tajriba asosida isbotlaydi, ya'ni mavzuni to'liq muammoli izoxlaydi. Keyinchalik asta-sekin muammolar yechimida o'quvchilarning ulushi ortib boradi: ular gipotezalar aytadilar va ularni yechish yo'lini taklif etadilar.

Umuman kimyo darslarini sifati va samaradorligini oshirishning omillaridan biri bo'lgan muammoli uslubni qo'llashda o'quv mavzusini mazmuniga hamda o'quvchilarni muammoni yechish jarayoniga tayyorgarligiga asoslanish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ro'zieva D., Usmanbaeva M, Xoliqova Z, Interfaol metodlar. Moxiyati va qo'llanilishi. (Uslubiy qo'llanma) Toshkent -2013 TDPU
2. Xodiev B.Yu, Golish L.V. Sposoby i sredstva organizatsii laboratornykh rabot. Ped. posobie - 2018.
3. conferences.uz materiallari.



## KIMYO DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

Rasulova Nilufar Ubaydullayevna

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani

15 - son mактабning kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada interfaol metodlarni darslarda qo'llashning samarasi, kimyo o'qitish metodlari va ularning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kimyo, metod, texnologiya, dogmatik, illyustrativ, evristik, ta'lif.

Ma'lumki, har qanday fanni rivojlantirish didaktik tamoyillarga pedagogik texnologiyalarga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lif jarayonining rahbari, ayni vaqtida, ushbu jarayonning ham sub'yekti, ham ob'yekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilar turadilar. Shunday ekan, ushbu sub'yektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiluvchi talablar, ta'lifni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni birgalikda bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim. Bu metodlar murakkab, ko'p tarmoqli, ko'pincha muammoli xarakterga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning barcha jihatlari to'g'risida bir yo'la sharh beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida belgilanadi va tegishlicha muhokama etiladi. Kimyo o'qitishning metodlari, shakllari, manbalari o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, kimyo o'qitish nazariyasining eng muhim bo'limlari sanaladi.

O'qitish metodi falsafiy nuqtai - nazardan ta'lif jarayonida ta'lif mazmunini harakatlantirish shakli bo'lib hisoblanadi. Agar predmetning mazmuni fanning didaktik ekvivalenti bo'lib hisoblansa, o'qitish metodlari o'rganilayotgan fan yoki bilish lozim bo'lgan narsalar metodlarining didaktik ekvivalentidir. Didaktikada fanni o'rganish metodlari va o'qitish metodlari mavjud.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga ta'lif, tarbiya beruvchi ularni rivojlantiruvchi metodlarni optimal tanlashdan iborat.

*O'qitish metodi* – o'qituvchi rahnamoligida o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagи faoliyati bo'lib hisoblanadi. Kimyo o'qitish metodikasining o'ziga xos alohida xususiyatlari mavjud: ular;

1. Kimyo o'qitish mazmuni va metodikasi amaliyotga asoslangan nazariy fan.

2. O'quvchilarning bilish faoliyati tafakkur qirralarini o'stirishga qaratilgan bo'lib, moddaning aniq xossasi o'zgarishi, holati, xossalari, tuzilishi, tarkibi kabilar fikr yuritishga o'quvchilarni o'ylashga olib keladi.

Har bir metod ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni qaerda samarali amalga oshirsa o'sha yerda o'sha jarayonda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Kimyo o'qitishning metodlari turli usullarda olib boriladi. *Metod – bu «yo'l» demakdir. U dogmatik, illyustrativ, evristik bo'lishi mumkin.*

*O'qitishning dogmatik metodi* – o'qituvchining materialni og'zaki, ko'rsazma vositalardan foydalanmay, dalil isbotsiz va faqat talabalarni bu materialni takrorlashga va yod olishgagina jalb etish bilan bayon qilishdan iborat.

*O'qitishning ilyustrativ metodi* – o'qituvchi o'quvchiga tayyor bilimlarni tushintirib, har xil xususiy metodlarni qo'llaydi. Ular: o'qituvchining tushuntirishi, darslik bilan ishslash, magnitafon va hakozolar bilan ishslash. Bunday ko'rgazmalar eksperiment, modellar, ekran qo'llanmalari tablisalardan foydalaniladi. O'qituvchi laboratoriya tajribalarini ko'rsatib tushuntirib beradi. Ilyustrativ metoda o'qituvchi ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarish texnikasi va metodikasini bajarish tartibini qo'llaganda ham foydalanadi. Bu metod o'quvchilarda minimum bilimlar zapasi yig'ilgach kengroq qo'llaniladi.

O'quvchilarda amaliy o'quv ko'nikmalarini shakllantirish, tajribalarni bajarib ko'rsatish



texnikasini shakllantirishda Masalan: probirkaga eritmani qo'yish, qoshiqchadagi eritmani bo'g'latish kabilarda tushuntirib ko'rsatish amalga oshiriladi.

*O'qitishning illyustrativ metodi* – kimyo kursining boshlang'ich qismida ko'p qo'llanadi. Bu davrda o'quvchilarda ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmaydi. Shu davrda o'qituvchi tajribalarni o'zi ko'rsatib tushintirib beradi.

Bumetoddan o'quvchilar tajribalarni mustaqil bajarib izohlab berishda ham keng foydalaniладilar.

*O'qitishning evristik metodi* - o'quvchilarning o'zlari qiladigan ish asosida tuziladi, talabalar bevosita o'qituvchining faol ishtiroki ostida kashfiyot qiladilar. Bu metodning «evristik» degan nomi «tadqiqot» metodi degan so'zdan kelib chiqqan. Masalan, galogenlar xossalaring chog'ishtirma tavsifi mohiyatini aniqlashda qo'llaniladi. Bu davrda o'quvchilar galogenlarning xossalarni chog'ishtirib izohlashini o'qituvchi tartibga solib turadi. Masalan, kaliy yodid eritmasiga kraxmal kleystrini qo'ysak rang sezilmaydi, alohida xlorli suvgaga kraxmal kleystrini qo'shsak yana rang o'zgarishi sezilmaydi. Uch komponentni birgalikda qo'shib aralashtirsak kraxmal ko'k tusga kiradi. Sababini esa o'quvchilar o'zlari izohlab berishlari lozim. Bu qisman izlanuvchanlikdir.

Izlanuvchanlik metodi mustaqil ishlash, mustaqil izlanishning bir turi bo'lib hisoblanadi. O'quvchi nazariy bilimlar to'g'rilingini amalda sinab ko'radi. Masalan, eksperimental masalalar yechishda bu metoddan foydalaniладilar.

Klassifikasiyalash asosiy xarakterga (nisbiy xarakter) ega. Amaliyotda metodlarning bir nechtasidan bir vaqtida foydalaniладili. Ular o'zaro bog'liqlikka ega. Klassifikasiyada har xil holatlar asosiy belgi sifatida qabul qilinadi.

### Foydalaniлgan adabiyotlar

1. X.T.Omonov., M.N.Mirvoxidova. “Kimyo o'qitish metodikasi” ma'ruzalar matni. 2001.
2. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. T.: 2007.
3. E.V.Beresneva “Kimiyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar” 2004
4. Umumta'lrim fanlari o'quv dasturi.



## KIMYO FANIDAN QIZIQ KASHFIYOTLAR

Seytimbetova Asiya Musayevna

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

28-son mактабning kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fanining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va bu sohada faoliyat yuritgan olimlar haqida, shuningdek kimyo faniga taaluqli qiziqarli faktlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kimyo, kashfiyot, Tasodify ixtiro, Fizikadan kimyoga, Besaranjom xodim, Rezina ixtirochisi, Gazli suv ichasizmi?, Tushda ayon bo'lgan davriy jadval, fakt, davriy jadval.

Ehtimol, maktabdagagi hamma kimyo bo'yicha muhim faktlarni o'rgangan. Biroq, kimyo bizni hamma joyda o'rab turganini hamma ham bilmaydi. Bundan tashqari, inson hayotidagi kimyo haqidagi qiziqarli ma'lumotlar ushbu ajoyib va foydali fan haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Har bir inson kimyoviy elementlar va ularning inson uchun bebafo foydalari to'g'risida bilib olishlari kerak. Dastavval kimyo so'zining ma'nosiga to'xtalsak. Kimyo so'zining ma'nosi - «Хем» - qora degani bo'lib, qadimiy Misrning nomidan kelib chiqqan. Keyinchalik bu so'z o'zgarib, “Xumo”(grekcha-kuyish, suyultirish) “Ximevis”- aralashtirish ma'nolarini anglatadi. Qadimda Yer paydo bo'lgan vaqtida Yerga birinchi bo'lib tushgan farishta Xumeyu deb nomlangan ekan. Shu farishta nomidan ximiya so'zi kelib chiqqan degan taxmin ham bor.

**Tasodify ixtiro.** 1903-yilda farang kimyogari Eduard Benediktus nitroselyuloza bilan to'la bo'lgan shisha kolbani tasodifan sindirib qo'yadi. Shisha sindi, ammo lekin Benediktus xavfsirab yuzini qo'llari bilan berkitishi bilan qaytib ko'zlarini ocharkan, sodir bo'lgan manzaragahayron qoldi: shisha kolba yorilgan bo'lsa-da, mayda bo'laklarga bo'linib sochilib ketmagan edi. U alohida parchalar holida, lekin xuddi ustidan yupqa pylonka bilan o'zaro biriktirib qo'yilgan kabi, bir joyda to'planib turardi. Benediktus ushbu tasodify ixtironi avtomobil peshoynalari uchun qo'llashni tavsiya etdi. Ixtiro avtomobilsozlikda muvaffaqiyat qozonib, bir necha yuzlab (balki minglab) insonlarni, peshoyna singanda shisha bo'laklari yuziga va tanasiga sachrab sanchilib qolishida saqlab qolgan.

**Fizikadan kimyoga.** Yadro fizikasi otasi bo'lmish Ernest Rezerford, bir paytlar fizika faniga haddan tashqari mubolag'a bilan katta baho berib, «barcha fanlarni ikki turkumga bo'lish mumkin: Fizika va pochta markalarini yig'ish!» deb aytgan edi. Biroq, eng qiziqarlisi shundaki, unga Nobel mukofotini, fizikadan emas, balki kimyo bo'yicha, «Radioaktiv moddalar kimyosi sohasida, elementlarning yemirilishi borasida olib borgan tadqiqotlari uchun» (1906-yil) berilgan. Natijada esa, Rezerford keyingi bayonotlarining birida hazil aralash, uning hayotda ko'rgan eng kutilmagan shakl o'zgarishlaridan biri sifatida, aynan o'zining fizik mutaxassisdan kimyogarga aylanib qolganligini ta'kidlagan edi.

**Besaranjom xodim va uning olamshumul kashfiyoti.** Shotlandiyalik bakteriolog Aleksandr Fleming laboratoriyyada mehnat qilar ekan, hamkasblari orasida unchalik saranjom emasligi va ish joyini ko'pincha yig'ishtirmasdan, pala-partish saqlashi borasida tanqidga uchrar edi. U haqiqatan ham o'ta betartib ish yuritadigan fe'l-atvor egasi bo'lgan. Lekin, baxtli tasodif tufayli uning bu xurmacha qiliqlari, 1928-yilda, XX asr tibbiyotining eng katta yutuqlaridan biri bo'lmish – antibiotiklarning kashf etilishiga sabab bo'ldi. O'z odatiga sodiq ravishda Fleming, bakteriyalar bilan tajriba o'tkazilgan maxsus idishchalarini, 2-3 haftalab yuvmay, tashlab qo'yan. Saranjom hamkasblar esa, o'z idishlarini doimo toza tutishar edi. U yangi tajriba uchun ishlatish maqsadida idishlarni yuvishga chog'lanar ekan, ulardan birida saqlangan bakteriyani o'rab olib, halok qilayotgan po'panakni ko'rib qoladi. Shu tarzda tarixdagagi ilk antibiotik – pensillin kashf etilgan edi. Fleming o'z kashfiyotidan nafaqat tibbiyotda, balki, tasviriy san'atda ham foydalangan ekan. U mikroblarning shtammlaridan foydalananib, ajoyib asarlar hosil qilgan.

**Rezina ixtirochisi.** Amerikalik Charlz Gudir ham rezina tayyorlash retseptini tasodifan kashf qilgan. U adashib, kauchuk va oltingugurtdan iborat aralashmani oshxona plitasida qizdiradi. Shu tarzda, kauchukning rezinaga aylantiradigan vulkanizatsiya jarayoni ixtiro qilingan. Gudirning o'zi, ixtirosining tasodify ekanligini inkor etmasa-da, biroq, unga shunchaki to'satdan erishilgan natija sifatida ham qarash noo'rin ekanligini ta'kidlar edi. Olim uzoq olib borilgan tajribalar seriyasida erishilgan kuzatuvchanlik va ziyraklik shunday yutuqqa olib kelgan deb fikr bildirgan.

**Gazli suv ichasizmi?** Ingliz olimi Jozef Pristli 1767-yilda, uzumni achitib tayyorlanadigan



ichimliklarda, bijg‘ish jarayonida hosil bo‘ladigan va suyuqlik yuzasiga qalqib chiqib yoriladigan gaz pufakchalar bilan qiziqib qoladi. Achitilayotgan uzum bochkasi ustida u suv to‘ldirilgan idishni qo‘yib, bir muddatdan keyin uni oladi va mazasini tatif ko‘radi. Pristli bunday suv tetiklantiruvchi xususiyatga ega ekanligini o‘z tanasi bilan his qilgan edi. Shu tarzda olim, hozirda ham gazlangan ichimliklar tayyorlashda qo‘llaniladigan karbonat angidrid gazini ochgan edi. 5 yildan keyingi e’lon qilgan ilmiy risolasida esa Jozef Pristli karbonat angidrid gazi olishning yanada takomillashgan usuli – bo‘r va oltингugurt kislotasini o‘zaro reaksiyaga kiritish yo‘li bilan hosil qilish haqida mufassal bayon qilgan.

**Tushda ayon bo‘lgan davriy jadval.** Bu hikoyani ham ko‘p eshitganmiz: emishki, D.I.Mendeleyev, o‘zi tuzgan kimyoviy elementlar davriy jadvalini avvaliga tushida ko‘rgan emish... Bu haqida olimning o‘zi shunday degan edi: "Men u (jadval) haqida balki 20 yil va undan ko‘proq o‘ylangandirman; siz esa, "mudradi va... tayyor!"-deb o‘laysiz". Haqiqatan ham, Mendeleyev, davriy jadvalni kunlardan bir kun, tasodifan, o‘zi umuman o‘ylamagan holda tushida ko‘rib qolib kashf etgan emas. Balki, uning ustida yillar davomida izlangan, tunu-kun fikri-yodi unda bo‘lgan. Inson bir narsani muttasil o‘layversa, uni tushida ham albatta ko‘radi. Bu ko‘pchiligidan ayon oddiy haqiqat. Shunday ekan, har qanday yutuq va muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. Bu kabi tasodiflar esa, aslida qonuniyatdir.

### Foydalangan adabiyotlar

1. [www.orbita.uz](http://www.orbita.uz)
2. <https://uz.kuzminykh.org>
3. M.R Avezov. Qiziqarli kimyo. "O‘qituvchi" nashriyoti, 1973.
4. Valibekov I.V Mo‘jizakor kimyo. "Maorif" nashriyoti, 1986.



## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TURLARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYA

Shirinova Zaynura Hasanovna

Buxoro viloyat Qorako'l tuman 8 maktab

Kimyo fani o'qituvchisi

Tel 943220241

**Annotatsiya:** ushbu maqolada pedagogik texnologiya turlari va innovatsion texnologiyalar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, suhbat.

Pedagogik texnologiyalar uzlusiz ta'lif turlari, ta'lif sohalari hamda ayrim belgilar bo'yicha turlarga ajratiladi.

Uzluksiz ta'lif turlari bo'yicha maktabgacha ta'lif, boshlang'ich ta'lif, tayanch ta'lif, mактабдан ташқари - qo'shimcha ta'lif, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi, oliy ta'lif, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lifi pedagogik texnologiyalariga bo'linadi. Shu bilan birga, ta'lif sohalari bo'yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amalaiy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lif pedagogik texnologiyalari mavjud.

Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoldan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lif jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

**Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha pedagogik texnologiyalar turlari:**

- Klassik ma'ruza;
- Texnika vositalari yordamida o'qitish;
- Maslahatchilik tizimi;
- Darslik bo'yicha o'qitish;
- Kichik guruuhlar tizimi;
- Kompyuter yordamida o'qitish
- Repetitorlik tizimi;
- Dasturlashtiriladigan boshqaruv.

**Innovatsiya** (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi,jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

**Pedagogik innovatsiya** deb o'quv tarbiya jarayonini va uning natijalarini yaxshilashga xizmat qiluvchi yangiliklar tizimiga aytildi.Pedagogik innovatsiyalar tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lif mazmunining rivoji uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek ta'lif tizimining rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiya inglizcha so'zdan olingen bo'lib yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya – tizimning ichki tuzilishini o'zgartirish demakdir. Innovatsion jarayonlar ham stixiyali, shuningdek, ongli boshqarilishi mumkin. Yangilik kiritish – bu eng avvalo, tabiiy va sun'iy o'zgarishlar jarayonini boshqarish funksiyasi. Shuning uchun ta'limgagi innovatsion jarayon – bu ta'limgagi o'zgarishlarni boshqarish jarayoni demakdir.

**Innovatsiya jarayoni bosqichlari**

1. Yangi g'oya tuzilishi yoki yangilik kontseptsiyasini paydo bo'lish bosqichlari.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amaliy qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni keng tadbiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasining qisqatirish bosqichi.

**Dars shaklida innovatsiyani quyidagi ko"rinishi mavjud:**

Ø a) standart dars – dars ichidagi struktura o'zgarmaydi.



Ø b) nostandard dars – dars ichidagi struktura o‘zgaradi.

Ø v) virtual dars – ya‘ni masofadan o‘qitish.

**Pedagogik yangilik** o‘z mohiyatiga ko‘ra ommaviy tajribalar mulki bo‘lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o‘qituvchilarning faoliyatiga olib kirladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob‘ektiv baho olgandan so‘ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi..

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bespalko B. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii.-M.: Pedagogika, 1999.
2. Farberman B. L, Musina R. G., F. A. Djumabaeva. Oliy o’quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari.-T.: 2002.
3. Farberman B. L. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan, 2000.



**KIMYO VA BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL O'QITISH USULLARIDAN  
FOYDALANISHNING MOHIYATI, AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI**

**Toshova Gulhayo Eshonqulovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani

24-umumiy o'rta ta'lif maktabi

kimyo fani o'qituvchisi

**Rajabova Baxtigul Baxodirovna**

biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo fanidan maktab darslarida foydalanishning mohiyati, kamchiliklari, afazallik tomonlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar;** tadqiqot, interfaol metodlar, didaktik vazifalar, zamonaviy ta'lif.

Maktab kimyo kursini o'rganishdagi qiyinchiliklar: Ta'lif usullari ... "Usul" so'zi yunoncha "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" degan ma'noni anglatadi. O'qitish usullari deganda o'qituvchiga ta'lif berish va o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal qilishda o'quvchilarining o'quv-kognitiv faoliyatini tashkil etish usullari tushunilishi kerak.

Interfaol metodlarning passiv ta'lif usullari – o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakli bo'lib, bunda o'qituvchi asosiy aktyor bo'lib, darsning borishini nazorat qiladi, o'quvchilar esa o'qituvchi ko'rsatmalariga bo'ysunuvchi passiv tinglovchilardir. Faol - bu o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir shakli bo'lib, unda o'qituvchi va talabalar dars davomida bir-birlari bilan muloqot qilishadi va bu erda o'quvchilar passiv tinglovchilar emas, balki darsning faol ishtirokchilaridir. Interaktiv - ("Inter" - o'zaro, "act" - harakat qilish) - o'zaro aloqada bo'lishni anglatadi, suhbat, suhbat tarzida bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, faol usullardan farqli o'laroq, interfaollar o'quvchilarining nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-biri bilan ham kengroq o'zaro munosabatlariga va o'quv jarayonida o'quvchilarining faolligi ustunligiga qaratilgan.

80-yillarda Milliy o'quv markazi (AQSh) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, interfaol usullar materialni o'zlashtirish foizini keskin oshirishi mumkin.

"Ta'lif piramidasi" Interfaol shakllar va o'qitish usullarining eng muhim ta'lif maqsadlari: o'rganilayotgan fanlar sohasidagi motivatsiya va qiziqishni rag'batlantirish; talabalarning faolligi va mustaqilligi darajasini oshirish; fikrlesh, o'zaro ta'sir, muloqotning tanqidiyligini tahlil qilish ko'nigmalarini rivojlantirish; aqliy faoliyatni faollashtirish va o'qituvchi va ta'lif jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlar tufayli o'z-o'zini rivojlantirish va rivojlantirish.

Interfaol usullarga asoslangan nostandard darslar: darslar-biznes o'yinlari; matbuot anjumani darslari; raqobat darslari; KVN kabi darslar; teatr darslari; maslahat darslari; kompyuter darslari; ishning guruh shakllari bilan darslar; talabalarning o'zaro ta'lif darslari; auktsion darslari; darslar - testlar; darslar-ijodiy hisobotlar; ikkilik darslar; o'yin darslari; rolli o'yin darslari; konferentsiya darslari; seminar darslari; fanlararo darslar va boshqalar

Interfaol ta'lif usullari va texnikasi Aqliy hujum - berilgan mavzu bo'yicha savollar va javoblar yoki takliflar va g'oyalar oqimi bo'lib, unda to'g'ri/noto'g'rilik tahlili bo'rondan keyin amalga oshiriladi.

Individual yondashuv. Yakka tartibdagi og'zaki so'rov muayyan talabaning bilimini tahlil qilish imkonini beradi. Siz bunday so'rovni darslik, rejalar, sxemalar yordamida o'tkazishingiz mumkin. Bundan tashqari, o'quvchida yangi motivatsion yo'nalish yaratishda "tik-tak-toe", "uchinchisi ortiqcha", "uchinchisi ortiqcha emas" kabi qiziqarli didaktik o'yinlardan keng foydalanish mumkin.

"Lavlagi va kek o'rtasida qanday bog'liqlik bor?", "Nega qandli diabet bilan og'rigan bemorlar insulinni qonga kiritadilar va uni ovqat bilan birga bermaydilar?", "Buni aytish to'g'rimi" kabi savollar alohida qiziqish uyg'otadi. non, pishloq, kolbasa, shakar – sun'iy oziq" (11-sinf, "Uglevodlar" mavzusi), "Margarin moydan olinadi, degan gap rostmi?" (10-sinf), "D. I. Mendeleyevning banknotlar bilan cho'kish mumkin, degan so'zlarini qanday tushunasiz?". (10-sinf). Bunday savollarni berishda javob topish uchun darhol dialog boshlanadi, keyin mumkin bo'lgan javoblar tinglanadi; odatda bir nechta fikrlar bor, lekin hamma to'g'ri javobga qiziqadi.



"Uy kimyosi" mavzusini o'rganayotganda, bu munozara uchun imkoniyat bo'lishi mumkin, uning davomida talabalar, masalan, quyidagi dalillardan foydalanib, kontseptsiyani tavsiflashni taklif qiladilar: kundalik hayotda hayotni osonlashtiradi, odamlarga zarar keltiradi. salomatlik, atrof-muhit uchun xavfli, zaharli moddalarni o'z ichiga oladi, siz zaharlanishingiz mumkin . Taklif etilgan g'oyalar asosida nafaqat atamaning talqinini berish, balki ijodiy loyihalar uchun muammoli masalalarни ham ilgari surishi mumkin.

